

## TALABALARDA KREATIV FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10034313>

**Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

**Mo'ydinova Durdonaxon Qahramonjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bugungi kunda uning ahamiyati va talabada bu qobiliyatning ustun tomonlari haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Kreativlik, fikrni ravonligi, fantaziya, Gardner, K.Robinson, Emeyl va boshqalar.*

Hozirgi kunda talabalarda kreativlik qobiliyatini yanada rivojlantirish, "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>203</sup> orqali yurtimizda bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Kelajakda malakali kadr bo'lish uchun talaba o'zida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantira olsa, natijasi ijobiy bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni damda talabada kreativ fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirish, zamonaviy metodik ta'minotni yaratish, talabalarda o'z sohalariga yo'naltirilgan kreativlikni rivojlantirish asosiy masal va vazifalardan biridir. Kreativlik talabada tafakkurida, muloqotida, zehnda, muayya faoliyat turida aks etadi.

"Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik - o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik - shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emeylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan

<sup>203</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil, 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 son farmoni.

birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" <sup>204</sup>. Har bir talabaning kreativ fikrlash qobilyati mavjud bo'lib, talaba bu qobilyatni bilim olish, badiiy asarlar o'qish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish va bilim olish jarayonlarida faol qatnashish orqali yanada rivojlantirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi ham bir muncha rol o'ynaydi. Masalan, o'qituvchini ham kreativ qobilyati yuksak darajada bolib, talabani darsga jalb etish, fikrini erkin bayon qilish, yangi metodlardan foydalangan holda darsni qiziqarli tarzda olib borish imkoniyatini yaratsa, talabada kreativ fikrlash qobilyat foizi bir muncha ortadi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobilyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobilyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).<sup>205</sup>

Kreativ fikrlash talabani mustaqil fikrlashini oshiradi. Bugungi kunda talabalarga kerakli qobilyatlardan biri ayan, kreativ fikrlash qobilyatidir. Ayniqsa, zamonviy ilm-fan, texnologiyalar, bilim va dunyoqarashlar rivojlanayotgan bir paytda kreativ fikrlash qobilyati muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek kreativlikda farazlar yaratish qobilyati orqali bu rivojlanishga hissa qo'shish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mabuotda bergan interyusida: «Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O'zbekiston“ va „Uchinchi Renessans“ so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda» deya ta'kidlar ekanlar, “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renesans” ni yanada rivojlantirish uchun yangi inovatsion g'oyalarni, shaxsning faolligi va albatta, kreativ fikrlash qobilyati muhim o'rin tutadi. Kreativ qobilyat bu yangicha g'oyalarni yaratish demakdir. Talabalar bu qobilyat tufayli nafaqat o'ziga, balki, yurt kelajagi uchun yaxshi kadr va o'z kasbining mukammal egasi bo'lishga erishishadi.

#### *KREATIV FIKRLASH QOBILYATINI QUYIDAGICHA OSHIRISH MUMKIN:*

<sup>204</sup> “TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI” Abrollov Shokir, JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-bosich talabasi.

<sup>205</sup> Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.

### *O'zingizni cheklang*

Ha, to'g'ri eshitdingiz, biror maqsad yo'lini inson o'zining ishlash doirasini cheklashi – bu kreativlikni oshirish uchun eng kerakli qurollardan biri. Misol tariqasida, ayni vaqtda va bunga qadar ham ko'plab muharrirlar va adiblar o'zlarini 50 ta so'z bilan cheklaydilar. 50 ta so'zlik matnda bir voqeani tasvirlay olasizmi, sinab ko'ring? Adiblar esa shu kichik matnda bir voqeani tasvirlashga urinishadi va bu kreativlikni oshiradi. Futbolchilar kichikroq maydonda to'p tepishadi, bu esa ularga yangi fintlar o'ylab topishga yordam beradi. Ish maydoningizni qisqartirish, kreativlikka qarab tashlangan birinchi qadam bo'ladi.

### *Ko'proq yozing*

Yozish insonga doim yangi g'oyalar olib keladi. Muharrirlik qoidalariga asosan, bir gapda ayni bir so'zni takror qo'llanilishi mumkin emas. Shunday holatda siz ham matnda har safar yangi so'zlarni o'ylaysiz va miyangiz boshqa variantlar qidiradi. Bu esa o'z navbatida yangi g'oyalar bilan ishlay olish qobiliyatingizni oshiradi.

Yozganlaringizni odamlar bilan ulashish esa chiroyli va vizual tasvirlay olish qobiliyatlaringizni oshiradi.

### *Albatta, bilimingizni oshiring, yozish doirangizni kengaytiring*

Inson o'zi xohlamagan mavzularda yozishga majbur bo'lsa yoki boshqa mavzular bilan matnni ulashga to'g'ri kelganda o'ta kreativ tarzda o'ylaydi. Ilmiy mavzuda maqola yoza turib, matnga hazil tariqasida biror latifani ulab ketishni mashq qiling, bu paytda miya so'zlarni to'g'ri ulashga harakat qiladi va albatta sinonimlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

### *Uzoqroq uxlang*

Uyqu insonning aqliy faoliyati uchun eng kerakli omil. Ilmiy tadqiqotlar shuni isbotlaganki, kuniga 6 soat uxlaydigan va bu jarayonni 2 hafta qaytargan insonning miyasi, 2 kun umuman uxlamagan inson miyasi bilan bir xil bo'lar ekan.

Ha, uyqu jismoniy faoliyat uchun dushman bo'lishi mumkin, siz zavodda 8 soat ishlay olishingiz uchun kuniga 8 soat uxlashingiz shart emasdir, lekin boshqa har qanday aqliy faoliyat turi kabi, kreativ fikrlay olish uchun ham, yaxshi uyqu zarur.

### *Tabiat, eng zo'r ilhomlantiruvchi*

Yana bir ilmiy tadqiqotchilar 56 ta sayohatga chiqayotgan insonlarni sayohatdan oldin va keyin bir nechta savollar bilan sinab ko'rishgan. Natijalar shuni ko'rsatganki, sayohatdan keyin insonlarning kreativligi 50 foizga oshgan. Shunday ekan, tabiat bilan do'stlashing, quyoshli kunlarda tashqarida ko'proq vaqt o'tkazing.

### *Pozitiv fikrlang*

Inson har qanday holatda ham pozitiv fikrlashga harakat qilishi kerak. Bu esa miyaning kengroq fikrlashiga olib keladi. Kayfiyatingiz yomon bo'lgan paytda esa miyangiz ham fikrlashdan o'zini chegaralaydi, yangi g'oyalar paydo bo'lmaydi.

### *Bunga bor kuchingiz bilan kirishing*

To'g'risini aytganda ham, kreativ fikrlashni oshirishning eng asosiy yo'li – bu o'zingizni sohangizni topish va doimiy ravishda qattiq mehnat qilish. Bir yo'nalishda o'zingizni cheklang demoqchi emasmiz, ammo bir yo'nalishga asosiy e'tiboringizni qaratar ekansiz, miyangiz bunga o'rganadi. Yangi go'yalar bilan ishlashni o'rganasiz.

Boshlash uchun buyuk bo'lish shart emas,

Buyuk bo'lish uchun boshlash kerak!

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil, 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 son farmoni.

2. "TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI" Abrollov Shokir, JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-bosich talabasi.

3. Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454.

4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasiagi nutqidan.

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>

Gazera.uz (<https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance>)

6. <http://newjournal.org/index.php/new/article/view/726/587>

7. <https://telegra.ph/kreativlik-urfon-12-24>

8. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 585-594.

9. Umidjon o'gli, T. J. (2022). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINIG ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 480-482.

10. Turakulova Oqila Amirkulovna Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil tadqiqodchisi. <O'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish

11. O'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. O'quv uslubiy qo'llanma. B.Xodjayev M.Maxmudova. "Tafakkur qanoti" Toshkent-2016

12. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(12), 60-64.